

O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI

Hayitov Jamshid Xolboyevich,

SamISI, "Raqamli Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

Akbarov Ravshan Rustamjon o'g'li,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning so'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlari, ayniqsa "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni va uning istiqbollari haqida so'z yuritiladi. Xususan, "Yashil" iqtisodiyotga o'tish, resurslarni samarali taqsimlash, atrof-muhitni himoya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish kabi maqsadlarni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, "yashil o'sish" strategiyalari, iqtisodiy islohotlar, barqaror rivojlanish maqsadlari.

Abstract. The article discusses the economic reforms implemented in Uzbekistan in recent years, especially the process of transition to a "green" economy and its prospects. In particular, the transition to a "green" economy includes such goals as efficient resource allocation, environmental protection, and job creation.

Keywords: green economy, "green growth" strategies, economic reforms, sustainable development goals.

Аннотация. В статье рассматриваются экономические реформы, реализуемые в Узбекистане в последние годы, в особенности переход к «зеленой» экономике, и их перспективы. В частности, он направлен на переход к «зеленой» экономике, эффективное распределение ресурсов, защиту окружающей среды и создание новых рабочих мест.

Ключевые слова: зеленая экономика, стратегии «зеленого роста», экономические реформы, цели устойчивого развития.

Kirish

So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar O'zbekistonning bozor islohotlarining navbatdagi bosqichiga o'tishi uchun qulay sharoit yaratdi. Iqtisodiy islohotlar yanada "yashil" bo'lib, iqtisodiyot barqaror bo'lsa, ushbu jarayon O'zbekiston uchun yanada foydaliroq kechishi mumkin.

2016-yilda O'zbekiston rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishni boshladi. Ko'pgina muhim tarmoqlarda bozor islohotlari faollashdi. Hukumat COVID pandemiyasi davrida kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni barqarorlashtirish bilan bir vaqtda islohotlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Bu sa'y-harakatlar ko'zlangan natijalarni berdi va bugun O'zbekistondagi odamlar farovonlik va turmush sharoitlari yaxshilanganini his

etmoqda. Iqtisodiy islohotlarning navbatdagi bosqichida kambag'allikni ikki baravar kamaytirish va 2030-yilga borib O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori davlatga (UMIC) aylantirishni maqsad qilib qo'yilgan. Iqtisodiy islohotlarga "yashil" maqsadlarni joriy etish orqali O'zbekiston o'tish jarayonini mustahkamlash va ushbu jarayondan olinadigan foydani oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu sinergiya "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da ham e'tirof etilgan.

"Yashil" o'tish mustaqil jarayon emas, balki barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o'tishning ajralmas qismidir. "Yashil" siyosat resurslarning va boylikning yanada samarali taqsimlanishiga, raqobatbardosh korxonalarga olib keladi. "Yashil" yondashuv resurslarning samarali ishlatilishiga va atrof-muhitning oqilona boshqarilishiga e'tibor beradi, bu esa samarali tabiiy resurslar bazasini saqlab qolgan holda boshqa sohalarda o'sish bo'lishi uchun ko'proq resurslarni bo'shatadi. "Yashil" siyosat yashil texnologiyalar va yechimlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu yangi ish o'rinlari yaratadigan va samarasiz davlat korxonalari rivojlanishdan ushlab turgan iqtisodiyotni yanada faollashtiradigan yangi ishtirokchilar va ularning tajribasi, innovatsiyalar va kapitalni talab qiladi. "Yashil" o'tish o'zgarishlarning zarar ko'rgan ishchilarga ta'sirini yumshatish hamda ularning yashil imtiyozlar va imkoniyatlardan foydalanishiga ustuvor ahamiyat berish orqali o'tishning salbiy oqibatlarini bartaraf etadi. Buning natijasida jamoatchilikning iqtisodiy islohotlarni qabul qilishi kuchayadi va o'tish jarayoni o'z yo'lida davom etishi mumkin bo'ladi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) 1-ilovaga muvofiq:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;

- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

- respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish vazifalari belgilangan.

2023–2025-yillarda amalga oshiriladigan ishlarni moliyalashtirish maqsadida Yevropa Ittifoqining 6,1 mln yevro grant mablag'lari jalb qilindi. Shu bilan birga, joriy yilning oktabr oyidagi O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining Fransiyaga tashrifi doirasida "Yashil" iqtisodiyot tamoyillari asosida viloyatlar (shaharlar)ning bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish" loyiha doirasida 100 mln yevro jalb qilinish bo'yicha dastlabki kelishuvga erishilgan.

Qazilma yoqilg'ilar subsidiyalarini kamaytirish hisobiga energiya resurslari sarfini maqbullashtirish maqsadida Fransiya taraqqiyot agentligi loyihasi doirasida Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi Barqaror rivojlanish xalqaro instituti (IISD) bilan birgalikda qazilma yoqilg'ilar subsidiyalarini xatlovdan o'tkazish hamda ularni kamaytirish bo'yicha loyiha yo'lga qo'yildi. Uning doirasida qazilma yoqilg'ilari subsidiyalarini xatlovdan o'tkazish birlamchi metodologiyasi tayyorlandi.

2022-yilning may oyida Metan emissiyasini kamaytirish bo'yicha global majburiyat (The Global Methane Pledge) to'g'risidagi tashabbusga O'zbekiston qo'shildi. Mazkur tashabbusga O'zbekiston joriy yilning may oyida Buxoro shahrida bo'lib o'tgan kambag'allikni qisqartirish mavzusidagi xalqaro forum doirasida qo'shildi. Tashabbus unga qo'shilgan a'zolarning 2030-yilgacha global metan emissiyasini 2020- yil darajasidan kamida 30%ga kamaytirish bo'yicha jamoaviy sa'y-harakatlarga hissa qo'shish uchun ixtiyoriy harakatlar qilishga roziligini bildiradi. Tashabbus doirasida mamlakatda amaliy harakatni boshlash maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) "Metan emissiyasini kamaytirish milliy dasturini ishlab chiqish"ga qaratilgan texnik ko'magi jalb qilindi (umumiy miqdori 1 mln AQSH dollari).

Jahon banki bilan birgalikda Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq qisqartirilgan issiqxona gazlarining xalqaro savdosi mexanizmini sotuvini yo'lga qo'yish bo'yicha loyiha ishlab chiqildi. Bunda, Jahon banki huzuridagi "Uglerod aktivlari transformativ fondi" (Transformative Carbon Asset Facility – TCAF) moliyaviy ko'magida O'zbekiston hukumatiga uglerod bozorida ishtirok etishda ko'maklashiladi. Xususan, respublikada qisqartirilgan issiqxona gazlari savdosini yo'lga qo'yish bo'yicha pilot loyihalarini amalga oshirish uchun 20 mln AQSH dollari grant mablag'lari hamda

pilot loyihalar asosida yana 25 mln AQSH dollari miqdorida qo'shimcha mablag'lar jalb qilinishi belgilangan.

Xulosa

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilgan islohotlar, shu jumladan, "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonlari, mamlakatni barqaror va raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tishiga qulay sharoit yaratdi. Iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan sa'y-harakatlar samarasida, O'zbekistonning turmush sharoitlari yaxshilandi. 2030-yilgacha kambag'allikni ikki baravar kamaytirish va O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori davlatga aylantirish maqsadlari belgilangan.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy yo'nalishlari qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona boshqarishdir. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiyotni faollashtirish uchun yashil texnologiyalarni qo'llash muhim o'rin tutadi.

Yevropa Ittifoqi va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlar orqali O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari samaradorligini oshirish va "yashil" o'tishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur resurslar jalb qilinmoqda.

Shu tariqa, O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi nafaqat barqaror rivojlanishni ta'minlash, balki xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali davlatning iqtisodiy o'sishini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank

2. 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

3. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>

4. <https://www.imv.uz/media/prior/Yashil.pdf>